# QO'RQUV VA G'AZABNING ASARLARDAGI AHAMIYATI

**Xoliyorova Ch.D.** O'zMU: mustaqil tadqiqotchi
Ilmiy raxbar: **Jo'rayeva I.A.**

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola qo'rquv va jaxl kabi inson emotsiyalari va ular orqali yuzaga keladigan psixolingvistik muommolarga bag'ishlanadi. Unda qo'rquv va jaxlning nutq faoliyati uchun ahamiyati va keltirib chiqaradigan muommolari hususida bir qator olimlarning fikrlari keltirib o'tilgan. Shuningdek, ushbu psixolingvistik muommolar badiiy asar qahramonlari nutqi tahlili orqali yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *qo'rquv, jaxl, psixolingvistika, lingvistika, emotsiya, motivatsiya, diqqat.*

***Abstract:*** *this article is devoted to human emotions such as fear and anger and the psycholinguistic problems that arise through them. It presents the opinions of a number of scientists on the importance of fear and anger for speech activity and the problems they cause. Also, these psycholinguistic problems are highlighted through the analysis of the speech of the characters of the work of fiction.*

***Key words:*** *fear, anger, psycholinguistics, linguistics, emotion, motivation, attention.*

***Аннотация:*** *Данная статья позвящена таким человеческим эмоциям, как страх и гнев, и психолингвистическим проблемам, возникающим в связи с ними. В ней представлены мнения ряда ученых о важности страха и гнева для речевой деятельности и проблемах, которые они вызывают. Кроме того, эти психолингвистические проблемы освещаются посредством анализа речи персонажей художественного произведения.*

***Ключевая слова:*** *страх, гнев, психолингвистика, лингвистика, эмоция, мотивация, внимания.*

Insonda qo’rquv va jaxl o’z-o’zidan paydo bo’lib qolmaydi. Bunda miya neyronlarining insonga nisbatan aytilayotgan gaplar yoki ish harakatlarga nisbatan reaksiyasi deb aytish mumkin. Kundalik turmushda bunday holatlar tez-tez takrorlanib turadi va jaxl va qo’rquv bazan insonlarni u yoki bu tomonga boshqaradi. Ya’ni, bunday vaziyat paydo bo’lganda inson beixtiyor yaxshi yoki yomon gaplarni aytib yuborishi va yashirin bo’lgan sirlarni ochib tashlashi kabi holatlar kuzatiladi. Olimlar insondagi qo’rquv va jaxl, ularning inson hayotidagi o’rni haqida ko’plab izlanishlar olib borishgan. Xususan: Zigmund Freyd fikricha “Qo’rquv –bu ichki havotirning ifodasi, jaxl esa shu havotirni tashqi dunyoga chiqarish shakli”[1.240]. Olimning fikrini o’qir ekanmiz, bu fikrlar to’g’ri ekanligiga amin bo’lamiz. Atrofimizdagi insonlar va ularning hatti-harakatlarini kuzatar ekanmiz, ularda to’satdan qo’rquv paydo bo’lganda,beixtiyor jaxlini ko’rsatishadi va ba’zan o’zlarini boshqara olmay qolishadi. Odatda bunday hodisalar inson miya neyronlari bilan bog’liq holda kechishi hech kimga sir emas.

O’z davrining yetuk nomoyondalaridan biri hisoblangan Charlz Darvin talimotlarida ham qo’rquv va jaxlning inson omiliga tasiri haqida asosli ma’lumotlar keltirilgan. “Qo’rquv – xavfdan qochishga, jaxl – o’zini yoki guruhni himoya qilishga xizmat qiluvchi tabiiy instinct” [2:368] – deydi olim. Uning talimotlarini ko’rib chiqar ekanmiz insonning omon qolish omillaridan biri aynan qo’rquv va jaxl ekanligiga amin bo’lamiz. Insondagi xavfdan qochish va o’zini himoya qilish instinkti kimdur tomonidan buyurilmaydi, balki insonning ong osti dunyosidan kelib chiqadi.

Har bir olim o’zining sohasi doirasida insonda vujudga keladigan qo’rquv va jaxl haqidagi fikrlarni izohlab o’tishgan. Bunday buyuk olimlardan yana biri Arestotel bu ikki munosabati o’rtasida mayor va muvozanat

kerakligini ilgari suradi. Olim “ Haddan tashqari qo’rquv – qo’rqoqlikka, ortiqcha jaxl esa – tajavvuzkorlikka olib keladi” [3:400]– deydi. Darhaqiqat, har bir narsada mayor bo’lishi azaldan insonlar tilida jaranglaydigan asosli fikrlardan biridir. Demak, jaxldagi mayor ham insonni axloqiy mukammallik sari yetaklaydi va inson o’zini boshqara olishi uchun zamin yaratib beradi. “Jaxl insonning erkinlik va xavfsizlik o’rtasidagi ziddiyat mahsuli”[4:734] – deydi Tomas Gobbs. Gobbs nazariyasida keltirilishicha inson – tabiatan tajavuzkor bo’ladi. Ammo insonni tartibga bo’ysunishga majbur qiluvchi narsa bu – o’lim yoki jazoning qo’rquvidir. Umuman olganda bu fikrlar haqiqatga juda yaqindir. Insonlar jazo olishdan yoki nobud bo’lish xavfidan yiroqda bo’lishga harakat qilishadi.

Olimlar qo’rquv va jaxlning shakllanishi borasida tajribalar ham o’tkazib ko’rishgan. Hususan, Ivan Pavlov o’zining “Lectures on Conditioned Reflexes” (Shartli reflekslar bo’yicha ma’ruzalar) asarida qo’rquv va jaxl insonda shartli reflekslar sifatida shakllanishini ko’rsatib bergan. Insonda qo’rquv yoki aggressiv holatning paydo bo’lishi asosan tashqi muhit tasiriga bog’liqligi haqida fikrlar keltirilgan.

Qo’rquv va jaxlni asarlardagi ko’rinishi nafaqat asar salohiyati va voqealar rivojiga, balki kitobxonga ham ta’sir qiladi. Odatda, adabiyotlarda qo’rquv va jaxl bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan qahramonlarning raqobati orqali paydo bo’ladi. Unda qo’rquv insonni ehtiyotkorlikka, chekinish yoki qochishga tomon harakatlantirsa, g’azab esa qarama-qarshilik va antogonistik harakatlar tomon boshlaydi. Bu ikki hissiyot bir qaraganda ichki ziddiyatni yaratish va shubhani kuchaytirish kabi salbiy ma’nolarni aks ettirsada, aslida ijobiy tomonlari ham mavjud. Ya’ni, unda tahdidni tezroq baholash va ularni harakatga keltirish, shuningdek, salbiy yoki ijobiy harakterlarni to’g’ri baholay olish kabi ijobiy funksiyalar nazarda tutiladi. G’azab ko’p holatlarda tashqi sabab va jinoyatchilarga nisbatan qaratilgan e’tibor orqali tasvirlanadi.

Asarda kiritilgan har bir holatning va voqea-hodisaning o'z hususiyati bo'lgani kabi, qo'rquv va g'azabning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular asarning asl mazmun mohiyatini ochib berishda va kitobxonga asar ichidagi qahramonlar ichki dunyosini his qilishda juda muhim:

Asarlarda qo'rquvning o'ziga xos xususiyatlari:

1. *Ichkariga e'tibor qaratish* – unda qo'rquv ko'p holatlarda ichki zaiflik, ikkilanish va ehtiyotkorlik sifatida nomoyyon bo'ladi. Asar qahramonlarining qo'rquv tufayli biror vaziyatni to'g'ri baholay olmasligi mumkin. Bazan, o'ziga bo'lgan ishonchning yetishmasligi sababli qilayotgan ishining natijasidan qoniqmasligi kabi ikkilanish holatlarini ham uchratamiz.

2. *Chekinish tendensiyasi* – bunda asar qahramonlari unga bo'layotgan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan tahdiddan qochishga urinadi va chekinadi.

3. *Tashvish yaratish* – yozuvchilar asardagi qo'rquvni yaratish yoki kuchaytirish maqsadida, bo'ronli ob-havo, qorong'ulik yoki ko'rinmas elementlardan foydalanib voqealar rivojini boyitadi.

4. *Zaiflik va noaniqlik* – qo'rquv ko'pincha nomalumlik bilan bog'liq bo'lib, qahramonlar ichki dunyosida zaiflik hissini yaratish bilan izohlanadi

Asarlarda g'azabning o'ziga xos xususiyatlari:

1. *Tashqi diqqat* – g'azab odatda tashqi olamga qaratilgan bo'lib unda sezilgan sabab yoki antogonistga qaratilgan hissiyot sifatida foydalaniladi.

2. *Qarshilikka moyillik* – unda janjal yoki bir biriga nisbatan ziddiyatli va qarama-qarshilik kabi harakat tendensiyalariga bog'liq bo'ladi.

3. *Nazoratni idrok etish* – bunday holatlarda g'azablangan insonlar hodisaning sababi ustidan nazoratni kuchaytirish tuyg'usini his qilishlari mumkin. Demakki, qahramonlar o'z ichki hissiyotlarini , ya'ni g'azabni boshqara olishi ham adabiyotda asosiy xususiyatlardan biri hisobladi.

4. *Harakat uchun motivatsiya* – asardagi ba'zi voqea hodisalarga keskin o'zgarishiga yoki kutilmagan qarorlarning paydo bo'lishida g'azab ham sabab bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda odatda natija yaxshilik tomonga yo'naltiriladi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, qo'rquv ham g'azab ham adabiyotda kontekstdan kelib chiqqan holatda ham ijobiy ham salbiy vazifalarni bajaradi. Ba'zan bir-biriga qarama-qarshi holatlarda ko'rinsada, g'azab va qo'rquv badiiy asarlarda birga ko'rinadi. Masalan: qo'rquvni o'z ichiga olgan vaziyatlar jaxl chiqishiga olib kelgan holatlar bilan birlashadi. Bu kabi holatlar bazi psixologik o'rganishlarda o'zoro bir-biriga tasir qiluvchi hissiyotlar sifatida o'rganiladi. Aslida bu his-tuyg'ular syujet va xarakter rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Masalan, qo'rqinchli harakterlar g'azab orqali qo'rquvni yengsa, antogonistga aylanadi va g'azabdan qasoskorga aylanadi. Qasoskorga aylangan harakter esa qo'rquvni his qilgandagina, ehtiyotkorlik tomon harakat qila boshlaydi. Badiiy asarlarga e'tibor qiladigan bo'lsak, qasos o'tida yonayotgan insonlar odatda qo'rquvni his qilishmaydi va maqsadi tomon harakat qiladi. Maqsadiga yetgandan keyingina uning hatti harakatlarini natijasi qay tomonga olib borishi haqida o'ylaydi va qo'rquv nimaligini his qilishadi. Uning hissiyotlari va qay holatda ekanligi esa kitobxonga yozuvchi tomonidan asarning qay darajada bayon etilganligiga bog'liq bo'ladi.

Asardagi ko'zlangan maqsadga erishish uchun, yozuvchilar kitobxonlarni to'lqinlantira olishi kerak. Qahramonlar hayoti esa qo'rquv, g'azab yoki boshqa insonning his tuyg'ulari bilan boyitiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

**1.** Фрейд З. По Ту Сторону принципа удовольствия. –М.: Академический проект. 2001.

**2.** Дарвин Ч. Выражение эмоций у человека и животных. СПб.: Питер.2001.

**3.** Аристотель. Никомахова этика. М.: Мысль. 1983.

**4.** Гоббс Т. Левиафан, или материя, форма и власть государства церковного и гражданского. –М.: Мысль 2001.

**5.** https://en.wikipedia.org/wiki/Emotion_classification